

## О'ZBEKISTONDA NIZOLARNING ARBITRAJDA KO'RISH EHTIMOLLARI

*Abraxmatova Ma'mura O'ktam qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik*  
*3-bosqich talabasi*  
*Abraxmatovamamura1@gmail.com*

### **O'zbekistonda nizolarning arbitrajda ko'rish ehtimollari.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda nizolarning arbitrajda ko'rilishi bilan bog'liq masalalar shuningdek, huquqiy tartib –qoidalari mavjud. Bugungi kunda nizolarning arbitrajda ko'rish bilan bog'liq muammolarni hal qilish maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi tashkil etilishi, unda olib boriladigan arbitraj jarayoni, taraflarning huquq va majburiyatlari, arbitraj bilan bog'liq protsessual harakatlar o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda nizolarning ko'rilishi shuningdek, uni tartibga solishda ushbu arbitraj markazning reglamenti huquqiy asos bo'la oladi. **Ushbu reglament 2019- yil 1- apreldan** kuchga kirgan.

O'zbekistonda nizolarning hal qilinishi bilan bog'liq jarayonda, arbitraj markazining reglamentiga muvofiq, Toshkent arbitraj markazi kotibiyatiga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi. Da'vo arizasi bilan murojaat qilish tartib qoidalari ushbu **reglamentning 4- moddasida** keltirib o'tilgan.

Unga ko'ra da'vo talabini kiritayotgan taraflar bir qator ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni taqdim etishlari kerak :

- ✓ Nizoni arbitrajga taqdim etish to'g'risida rasmiy talab,
- ✓ Nizolashayotgan har bir tarafning, shuningdek vakilining aloqa ma'lumotlari, telefon raqami, faks raqami hamda electron pochta manzili
- ✓ Amalda mavjud bo'lgan arbitraj kelishuvining identifikatsiyasi va kelishuv nusxasi
- ✓ Agar da'vo bittadan ortiq arbitraj kelishuvi bo'yicha kelib chiqqan bo'lsa, har bitta da'vo qaysi kelishuvga oid ekanligini ko'rsatilishi kerak.
- ✓ Da'vo uchun asos bo'lgan nizo xarakterini va vaziyatlarini qisqacha ta'riflash
- ✓ Da'vo talabining qisqacha bildirilishi, shuningdek da'vo qilinayotgan talab summasi ko'rsatilishi kerak. <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Toshkent xalqaro arbitraj markazi ( TXAM ) Arbitraj reglemanti 4-moddasi

Bundan tashqari, taraflar arbitraj joyi, arbitraj olib boriladigan til, arbitrajlar soni haqida oldindan kelishib olmagan bo'lsalar, bular xususida taklif berilishi kerak. Nizolashayotgan taraflar o'rtasida arbitrlar soni kelishib olinmagan bo'lsa arbitrlar sonini, shuningdek, moliyalashtiruvchi shaxslar to'g'risida ma'lumot taqdim etishi kerak. Shuningdek, **reglamentning 4-moddasida** nazarda tutilgan tarzda, ariza bojini to'lashi kerak. Toshkent xalqaro arbitraj markazida ariza boji to'langanidan keyin ish boshlangan sanaladi. Toshkent xalqaro arbitraj markaziga 15-kun muddatda javobgar markazga javobni taqdim etishi lozim. Javobgar qilishi kerak bo'lgan protsessual harakatlar Toshkent xalqaro arbitraj markazi **reglamentining**

**5-moddasida** o'z aksini topgan.

Javobgar TXAM Kotibiyatiga javobini taqdim etishi kerak va unda quydagilar aks etgan bo'lishi kerak.

- O'zining yoki vakilining to'liq nomi, tarifi, manzili shuningdek boshqa ma'lumotlari, jumladan telefon raqami, faks raqami va electron pochta manzili.
- Tribunal yuridiksiyaga qarshi ma'lum bo'lgan yoki boshqalardan tashqari, arbitraj kelishuvining haqiqiylikilllll, mavjudligi, qo'llanilish sohasida asoslangan holda ma'lum bo'lishi barcha etirozlar
- Agar mavjud bo'lsa qarshi da'vo xarakteri va vaziyatlar to'g'risidagi ariza, da'vo talabi va imkoni boricha qarshi da'vo summasining dastalabki identifikatsiyasi ko'rsatilishi lozim.
- Moliyalashtirish to'g'risidagi kelishuvning va har qanday begona homiy shaxsning mavjudligi.
- Arbitraj tili va joyi hamda ishni tartibga solishda foydalanadigan qonunlar
- Har qanday qarshi da'vo uchun ariza bojining to'langanligi to'g'risida dalililar.<sup>2</sup>

Toshkent xalqaro arbitraj markaziga bir va undan ortiq shartnomalar bilan murojaat etilganda har bir davvo uchun alohida da'vo arizasi taqdim etiladi. Arbitraj **reglamentining 6-moddasida** shartnomalar uchun alohida da'vo arizasi taqdim etilishi, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni birlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, arbitraj markazi arbitraj sudi konsolidatsiya arizasini rad etmasa va konsolidatsiya qilinmagan har bir arbitraj muhokamasi uchun ariza bojini talab qilmasa Markaz kotibiyati reglament qoidalariga muvofiq korilib chiqilishi lozim bo'lgan barcha arbitrajlar uchun yagona ariza bojini qabul qiladi. Agar tribunal tashkil etilgunga qadar arbitrni tayinlamagan yoki tribunalni tashkil etishda ishtirok etmagan har bir taraf arbitrni tayinlash va tribunalni tashkil huquqidan voz kechgan hisoblanadi, ushbu holat **reglamentning 7- moddaning 9 -qismida** belgilab qo'yilgan.

<sup>2</sup> Toshkent xalqaro arbitraj markazi ( TXAM ) Arbitraj reglemanti 5- moddasi

Qo'shimcha qilingan har bir ariza yoki boshqa qarshi da'vo arizasi uchun ariza boji to'lanishi lozim hisoblanadi. Bundan tashqari, Toshkent Arbitraj markazi **reglamentning 8-moddasida** Konsolidatsiya masalasi qayd etilgan. Ya'ni ushbu holatda, arbitraj markazi tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan bir yoki undan ortiq bo'lgan ishlar jamlanmasi kutib turgan bo'lsa va uni taraflar roziligi bilan birlashtirish imkoni bo'lsa ushbu holat ish yuzasidan **konsolidatsiya** deb ataladi. **Reglamentning 8-moddasida** Ushbu holatning vujudga keltirish uchun asosiy omillar sanab o'tilgan:

- ✓ Barcha taraflar birlashtirish uchun rozilik berishi
- ✓ Barcha da'volar bir xil arbitraj kelishuviga muvofiq ko'rsatilgan bo'lsa.
- ✓ Arbitraj kelishuvlari birlashtirilgan bo'lsa, agar qo'llanilishi mumkin bo'lsa har bir tribunal har bir arbitraj uchun tashkil etilgan bo'lsa
- ✓ Nizolar har xil huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan bo'lsa, shuningdek, asosiy shartnoma va yordamchi shartnomalardan tarkib topgan shartnomalardan kelib chiqqan bo'lsa

Toshkent xalqaro arbitraj markazida arbitrajlarini tayinlash to'g'risida arbitraj boshlanishidan oldin kelishib olishmagan bo'lsa, Kotibiyatdan bildirishnoma olgan kundan boshlab 15kun davomida arbitrlar soni to'g'risida kelishib olishmagan bo'lsa TXAM kotibiyati tomonidan ish yakka arbitraj yoki 3 ta arbitraj ko'rib chiqishi to'g'risida qaror qabul qiladi. Shuningdek, **reglamentning 9-moddasida** arbitrlarni9 tayinlash masalasiga alohida to'xtalgan. Ushbu holatda arbitrlarni tayinlash bir yoki bir nechta taraf bilan tayinlashi mumkin.

Arbitrlarni xolisligiga shubha bo'ladigan holatda, **reglamentning 11-moddasida** arbitrni rad etish bosqichlari keltirib o'tilgan. Arbitrni rad etish to'g'risida ariza yozma shaklda taqdim etilishi, yetarli asos va dalillardan iborat bo'lishi kerak. Arbitrni rad qilmoqchi bo'lgan taraf, 15 kun davomida rad etish to'g'risida bildirishnoma yuborilishi kerak. Shuningdek, arbitrni rad etish bilan bog'liq masala agar arbitr istefoga bergan bo'lsa yoki rad etmayotgan taraf rad etish to'g'risida bildirishnoma olgan kundan 7 kun davomida bekor qilmasa, unda Arbitraj sudi sudyasi tomonidan arbitrni rad qilishini kerak.

#### **O'zbekistonda arbitrajda ish ko'rib chiqish taomili :**

**Reglamentning 12 –moddasida** ishni korishning tartib – taomili keltrilgan bo'lib unga ko'ra ish reglament qoidlariga muvofiq o'tkaziladi. Shuningdek ishda masalaning murakkabligi, nizolarning soni, nizoni odilona hal etish bilan bogliq masalalarga alohida etibor beriladi. Tribunal barcha dalillarning maqbulligi, aktualligi, ahamiyati va samaradorligiga alohida etibor berishi kerak. Barcha hujjatlar yozma tarzda ikkinchi tarafga ham taqdim etilishi kerak. **Reglamentning 14 –moddasiga** muvofiq taraflar muhokama o'tkaziladigan joy to'g'risida yozma tarzda kelishib olishlari mumkin. Agar taraflar o'rtasida kelishuv yo'q bo'lgan holat bo'lganda esa arbitraj har tomonlama qulay bo'lgan joyni tanlaydi.

Арбитраж томонидан корилadigan til ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni tribunal tuzilgan vaqtda dastalabki til arbitraj bitimining tili yoki ustunlik qiluvchi til deb belgilanadi. Shuningdek, arbitrajda vakil tayinlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Taraflarning majburiyatini hisobga olgan holatda taraflar o'zlari uchun ishonchli vakil tayinlashi mumkin. Vakil ishda haqqoniy va holis, ish uchun muhim ahamiyatli darajada yordam berishi kerak.

Toshkent xalqaro arbitraj markazi reglamentiga muvofiq, ishda guvohlar, ekspertlar shuningdek boshqa ish uchun ko'maklashuvchi shaxslar jalb qilinishi mumkin. Bundan tashqari, tribunal tomonidan qo'llaniladigan huquq va vijdon va haqqoniylik bo'yicha murosaga keltiruvchi boshqa qonun- qoidalar ham mavjud. Tribunal tomonidan nizolarni hal qilishda, taraflaning huquq va manfaatlari hisobga olinadi, bunda davlat huquqining har qanday belgilanishi, agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa davlatning kollizion normalariga emas, balki moddiy huquq meyorlariga asosan huquq va manfaatlarni inobatga oladi.

**Reglamantning 24-moddasida** arbitraj qarori bo'lib unga ko'ra taraflardan yetarli darajada dalillar bo'lgan vaqtdan boshlab, arbitraj ishni ko'rish boshlanadi. Taraflar boshqa kelishuv qilishmagan bo'lsalar agar arbitr bittadan ko'p bo'lsa, Tribunalning har qanday qarori ko'pchilik bilan qabul qilinishi lozim. Agar ko'pchilik bo'lmasa faqat raislik qiluvchi tomonidan qabul qilanadi va hal qilinadi. Bunda, qaror TXAM kotibiyatiga beriladi, qarorning tasdiqlangan nusxalari arbitraj sarf- harajatlari to'la hal qilingandan so'ng taraflarga yuborilishi kerak. Agar taraflar qaror qabul qilgunga qadar kelishib olsa, Tribunal arbitraj xarajatlarini to'la hal qilib bo'lgandan so'ng tribunalni to'xatadi. Bundan tashqari, tamonlar qarorni 30 kun ichida tribunalga yozma shaklda xabarnoma, markazga va boshqa tomonga qarorning nusxalarini yuborib, unga Tribunaldan qarorni izohlab berishini, hisob- kitoblarda xatoliklarni, texnik xatoliklarni tuzatishni so'rashi mumkin. Shuningdek, arbitraj xarajatlari ichida boj va deposit masalalari ham mavjud bo'lib, arbitraj sudi tomonidan da'volar va qarshi da'volar bo'yicha alohida depozid to'lanashi mumkin. Taraflar arbitraj jarayonida umumiy javobgar hisoblanadi, bundan tashqari taraflar barcha arbitraj jarayonini Toshkent xalqaro arbitraj markazi reglamenti asosida amalga oshirar ekan bunda, taraflar yuridik va boshqa harajatlarni to'laligicha yoki qisman qoplanishini ko'rsatishga huquq va vakolatlar berishilishiga rozi bo'lishlari kerak. **Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi O'RQning 49-moddasida** arbitraj muhokamasi yakuniy arbitraj hal qiluv qarorini qabul qilish yoki ushbu moddaning **ikkinchi qismiga** muvofiq chiqarilgan arbitraj sudining qarori bilan tugatiladi Arbitraj sudi quyidagi hollarda arbitraj muhokamasini tugatish to'g'risida qaror chiqaradi, agar:

1) da'vogar o'z da'vosini chaqirib olsa, agar javobgar muhokama tugatilishiga qarshi e'tirozlar bildirmasa va arbitraj sudi javobgarning nizo uzil-kesil hal qilinishidan qonuniy manfaatdorligini tan olmasa;

2) taraflar muhokamani tugatish to'g'risida kelishib olsa;

3) arbitraj sudi biror-bir boshqa sababga ko'ra muhokamani davom ettirishni zarur emas yoki inkonsiz deb topsa.<sup>3</sup>

Ushbu asoslar va TIAC reglamentiga muvofiq Toshkent xalqaro arbitraj sudi arbitraj muhokamasini to'xtatishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- ✓ Toshkent xalqaro arbitraj markazi ( TXAM ) Arbitraj reglemanti
- ✓ <sup>1</sup> O'RQ-674-сон 16.02.2021. Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida (lex.uz)

<sup>3</sup> O'RQ-674-сон 16.02.2021. Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida (lex.uz)